

## MEDIA KONTENT YARATISH VA IJODIY FIKRLASH

Raqamli davrda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axborotni yaratib, uni maqsadli auditoriyaga yetkazuvchi shaxsga aylanmoqda. Hozirgi ta'lim muhitida o'quvchi darsda faqat matnni o'qish yoki tinglash bilan cheklanmaydi. U o'rganayotgan ma'lumotni ko'rish, his qilish va tajriba sifatida boshdan kechirishni xohlaydi. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida media vositalar bilan ishlashni, ularni maqsadli va ijodiy tarzda qo'llay olishni bilishi zarur.

Media kontent bu axborot vositalari orqali uzatiladigan mazmun, ya'ni video, rasm, ovoz, infografika, maqola, podkast, ijtimoiy tarmoq posti yoki taqdimot ko'rinishidagi har qanday materialdir. O'qituvchining dars jarayonida tayyorlagan qisqa videoroliklari, ijtimoiy tarmoqda joylashtirgan postlari, sinfda ishlatgan slaydlari yoki o'quvchilar bilan birgalikda yaratgan loyihalari ham media kontent sifatida qaraladi. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchi ongida ta'sir uyg'otadi, shuning uchun ularni maqsadli va mas'uliyat bilan yaratish kerak.

Ijodiy fikrlash bu o'qituvchining mavjud ma'lumotga boshqacha yondashuvi, har bir mavzuda yangicha g'oya topish va uni ifodalash san'atidir. Ijodiy fikrlovchi pedagog darsni shunchaki o'tkazmaydi, balki uni o'quvchi uchun esda qolarli, his etiladigan tajribaga aylantiradi. Masalan, "Tabiatni asraylik" mavzusida o'quvchilarga insho yozishni topshirish o'rniga, ulardan "Tabiat so'zlasa, bizga nima der edi?" nomli qisqa video tayyorlashni so'rash mumkin. Shu orqali o'quvchi nafaqat yozadi, balki o'ylaydi, his qiladi va ijod qiladi.

Media kontent yaratish jarayonida eng avvalo maqsadni aniq belgilash muhim. Har bir kontent ma'lum bir g'oyani ifodalaydi. U o'quvchini o'ylantirishi, xabardor qilishi, ilhomlantirishi yoki ijobiy harakatga undashi kerak. Maqsad aniq bo'lsa, kontentning shakli va uslubi ham to'g'ri tanlanadi. Shuningdek, auditoriyani bilish ham muhim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratiladigan material bilan yuqori sinflarga mo'ljallangan video yoki osonalarga yo'naltirilgan post o'rtasida katta farq bo'ladi.

Keyingi bosqich – formatni tanlash. G'oyani ifodalash uchun eng mos shaklni topish zarur. Ba'zan bir daqiqalik qisqa video butun darslikdagi izohdan ko'ra samaraliroq ta'sir beradi. Ba'zida esa infografika, podkast yoki mem shaklidagi material o'quvchilarning e'tiborini yaxshiroq jalb qiladi. Muhimi, kontent soddaligi, aniq xabari va ijobiy ohangi bilan ajralib turishi kerak.

Bugungi kunda o'qituvchilar uchun media kontent tayyorlashni osonlashtiruvchi ko'plab vositalar mavjud. Masalan, Canva orqali afisha,

taqdimot va videoroliklar yaratish, CapCut va VN Editor orqali videoni tahrirlash, Mubert yoki Soundraw yordamida fon musiqasi tanlash, ChatGPT yoki Gemini orqali g'oya ishlab chiqish va matn yaratish mumkin. Ushbu vositalar o'qituvchiga texnik qiyinchiliklarsiz ijodiy material tayyorlash imkonini beradi.

Media kontent yaratishda soddalik va tabiiylik har doim ustuvor bo'lishi lozim. Juda ko'p matn, murakkab so'zlar yoki ortiqcha bezak kontentning asosiy xabarini so'ndiradi. Eng samarali media kontent bu qisqa, hissiy va aniq g'oya asosida qurilgan materialdir. Har bir video yoki post orqali o'qituvchi o'quvchining e'tiborini tortib, unga fikrlash va his qilish imkonini berishi kerak.

Media kontent pedagogik jarayonning bir qismi sifatida tarbiyaviy va madaniy mazmun kasb etishi zarur. Har bir o'qituvchi yaratgan material milliy qadriyatlarga, ijobiy g'oyalarga va axloqiy me'yorlarga asoslanishi lozim. Masalan, ona tili fani o'qituvchisi "Tilimiz go'zalligi" nomli videorolik tayyorlab, o'quvchilarda so'z boyligini rivojlantirsa, tarix o'qituvchisi "Bir daqiqada tarix" loyihasi orqali tarixni qiziqarli shaklda yetkazadi, biologiya o'qituvchisi esa "DNK qanday rivojlanadi?" nomli sahifada o'simlik va hayvonot olamiga oid qiziqarli faktlarni infografika orqali tarqatadi. Bunday yondashuv o'quvchida nafaqat qiziqish, balki estetik didni ham shakllantiradi.

Ijodiy fikrlash o'qituvchini yangilikka ochiq, izlanuvchan va moslashuvchan qiladi. Har bir darsni badiiy, estetik va texnologik jihatdan boyitish imkoniyati o'qituvchining ijodiy yondashuvidan kelib chiqadi. Shuning uchun media kontent yaratish bu texnik emas, ijodiy va ma'naviy jarayon bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, media kontent yaratish va ijodiy fikrlash o'qituvchini raqamli davrning yetakchisiga aylantiradi. U o'z bilimini zamon talabi bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi va ularni fikrlashga, o'ylashga, ijod qilishga undaydi. Har bir yaratilgan media material bu kichik, ammo chuqur ta'sir kuchiga ega ta'lim vositasidir. O'qituvchi uchun media kontent endilikda darsni boyituvchi emas, balki o'quvchini hayotga tayyorlovchi kuchli pedagogik vosita hisoblanadi.



D BLOCK

